

FOLK WHEN GROWING ORAL SPEECH OF STUDENTS ROLE OF PROVERBS

Khalikulova Jumagul Tavbayevna
Mirzaabad district, Syrdarya region

1st General secondary education school with native language and
teacher of literature

ANNOTATION

One of the edges of the beauty of human spirituality is its touching and beautiful speech. Our great geniuses have in the past paid attention to the meaning and fluency of speech. Beautiful, fluent speech gives the listener spiritual nourishment, raises his psyche. In this regard, the possibility of native language training in the cultivation of oral speech of students is wide. The use of Proverbs is very effective in the form of folk oral creativity. Because the proverb is the most common type of folk wisdom, in which the intelligence, aspirations, vivid experience and concepts of upbringing of our people are expressed. It is not for nothing that the proverb “A wise man does not speak without a proverb” is the proverb of blackcurrants, which arose as a result of the observation of vital signs. In fact, the proverb enriches human speech, it serves as the Magee of speech. That is why proverbs are considered a mentor and advisor to everyone.

Xalq maqollaridan ona tili mashg'ulotlarida o'rinli va maqsadli foydalanish o'quvchilarning nutqining ta'sirchanligini oshirib, fikrni lo'nda va ravon qilishda ahamiyati juda kattadir. dars mavzu xususiyatidan kelib chiqib, o'zbek xalq maqollaridan tanlab ularning mazmunini izohlab, til qoidalari asosida tahlil qilinsa, o'quvchilarda o'tmishga, vatanimizga, tilimizga, ota-bobolarimizga bo'lgan munosabatni tarbiyalaymiz. Masalan: o'quvchilar 2 guruhga bo'linadi va ular quyidagicha nomlanadi.

1-gurux “Tadbirkor”

2-gurux “Ishbilarmon”

Topshiriqlar:

1- guruxga: Mehnat bilan topganing, qandu asal totganing

2-guruxga: Mehnatdan kelsa boylik turmush bo'lar chiroylik.

Har bir gurux maqolda ishtirok etgan kesimning shaxsi aniqlashadi, so'ngra sintaktik tahlil qilinadi, mazmuni sharhlanib, taqdimot qilinadi. Mazkur topshiriq guruh a'zolarining topqirligi va zukkoligini aniqlabgina qolmay, o'quvchilarning mehnatga bo'lgan munosabatini ham belgilab beradi.

Dars jarayonida xalq maqollaridan o'rinli va maqsadli foydalanish ona tilining lug'at boyligini, go'zalligini, imkoniyatini ifoda ko'lamini sehrini o'quvchilarga singdirish orqali ulardagi nutq go'zalligi, ma'noli madaniy nutqni shakllantiradi. Shu o'rinda “Maqol chaqilmagan yong'oq” mashqini o'tkazishni ahamiyati kattadir.

Videoproektor orqali ekranda quyidagi maqollar yozilgan lavha ko'rsatiladi. So'ngra har bir maqol izoxlanib, kichik mashq tuzadilar, so'ngra mavzuga mos gramattik tahlil o'tkazadilar. Bu topshiriqlar ustida ishlab bo'lgach, navbatdagi ishni quyidagicha berish mumkin.

Yurgan daryo, o'tirgan bo'ya,

Yolg'iz otning changgi chiqmas, Changgi chiqsa xam dong'i chiqmas.

Qalovini topsang qor yog'adi.

O'roqda yo'q, mashoqda yo'q, hirmonda xozir.

Ushbu maqollarda ishtirok etgan o'quvchilar uchun notanish bo'lgan so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkazish lozim.


Bo'ya – namatning solingan, qamish cho'pidan to'qilgan to'qima to'shama.

Dong’i – ovozasi, mashoq bug’doy bug’doy o’rimidan keyin dalada qolgan hosil.

Qalovi – tutantiriq, to’g’ri qalamoq.

Son mavzusini musxaxkamlashda sonlar ishtirok etgan maqollardan keltirishning ahamiyati kattadir. Masalan: “Sanamay sakkiz dema”, “Ikki o’nbesh, bir o’ttiz”, “Oyning o’nbeshi qorong’u bo’lsa, o’n beshi yorug’”. O’quvchilar tomonidan maqollardagi sonlarning ma’no turlari va gapdagi vazifasi aniqlanadi. Ma’nosi izohlanib sonlar ishtirok etgan maqollardan boshqa namunalar aytiladi.

O’quvchilarning og’izaki nutqini o’stirishda, fikrlash qobiliyatini shakllantirishda “Oftobjon” o’yinidan foydanashi mumkin. Bu o’yin orqali maqollarni mavzulashtirish topshiriq beriladi topshiriq quyidagicha bajariladi



Maqollarning mazmuni shakllani, uning tarbiyaviy ahamiyati tushuntiriladi. Keyingi topshiriq o’quvchilar o’z istaklari va tanlovlariga ko’ra, maqollardan ikkitasini tanlab morfologik tahlil qiladilar.

Xulosa qilib aytganda maqollar nafaqat darsda, balki kundalik xayotda, bayram va o’yinlarda keng qo’llash imkoniyatini yaratadi. Bu esa o’quvchilarni xalq donoligiga urf-odat va an’analarga xurmat ruhida tarbiyalashda xamda bolalar xayotini yangi mazmun bilan to’ldirishda yordam beradi. Ushbu maqolada maqollardan ta’lim jarayonida maqsadli va o’rinli foydalanish orqali nutq boyligini o’stirish yo’llari xaqida fikrlarni bayon qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G’ulomova M.X., Sobirova N.K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta’lim samaradorligini oshirish usullari – T.: 2009
2. Арзуова Ш. А., Маденова Э. Н. Стратегическое управление промышленным предприятием регионального производственного кластера //Принципы и технологии экологизации производства в сельском, лесном и рыбном хозяйстве. – 2017. – С. 203-208.
3. Арзуова Ш. А. Роль экономики и развития электронной коммерции в коммерческих банках Узбекистана. IX Global science and innovations 2020: SENTRAL ASIA //IX Global science and innovations. – 2020. – С. 37-42.